

## “ICHAN-QAL’A” DAVLAT MZUEY-QO‘RIQXONASI TARKIBIDAGI “ALLOMALAR” MUZEY EKSPOZITSIYASINING TARIXIY AHAMIYATI

**Djumaniyozova Mahliyo Shuhrat qizi**

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi “Allomalar” bo‘limi katta ilmiy xodimi.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibida tashkil etilgan “Allomalar” muzey ekspozitsiyasining tarixiy ahamiyati, ekspozitsiyaning strukturasi, asosiy maqsad va vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek “Ma’mun akademiyasi” va “Bayt ul-hikma” da faoliyat ko‘rsat olimlar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy, Samarqand, Buxoro, Poykand, Termiz, Nishopur, Balx, Marv, “Bayt ul-hikma”

### THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE MUSEUM EXPOSITION “ALLOMALAR” AS PART OF THE “ICHAN-KAL’A” STATE MUSEUM-RESERVE

### ABSTRACT

This article provides information about the historical significance of the “Allomalar” museum exposition, the structure of the exposition, the main goals and tasks, organized as part of the “Ichan-Kal’a” state museum-reserve. Brief information about the scientists working at “Ma’mun Academy” and “Bait ul-Hikma” is also given.

**Keywords:** Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy, Samarqand, Buxoro, Poykand, Termiz, Nishopur, Balx, Marv, “Bayt ul-hikma”

Xorazm vohasi jahon tsivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi. Xorazmda qadimdan shaharsozlik, mehmoorchilik va hunarmandchilik, tasviriy san’at, yozuv, moddiy va ma’naviy madaniyat rivojlanib kelgan. Bu vohadan dunyo ilmfaniga katta hissa qo‘shgan Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Munis, Ogahiy singari buyuk daholar yetishib chiqqan.

Xorazm Ma’mun akademiyasi Sharhning mashhur olimlari to‘plangan ilmiy markazlardan biridir. X asrda Xorazm davlatning birlashishi, iqtisodiy yuksalish

ma'naviy hayot rivojiga turtki bo'ldi. Xorazmshoh Mahmud o'z saroyiga olimlarni to'plab, ularga ilm bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratib berdi. Bu dargohda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abu-l-Xayr Xammor kabi mashhur allomalar faoliyat yuritdilar.

Xorazm Ma'mun akademiyasi tarixini, akademiyada faoliyat yuritgan allomalarning hayoti, merosini va Ozarbayjon xalqining buyuk allomalarini targ'ib qilish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mahmud ibn Muhammad (995-997) Shimoliy va Janubiy Xorazmni birlashtirib, Gurganch shahrini poytaxt qildi. Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (997-1009) davrida poytaxt Gurganj mahrifat markaziga aylandi. Bu yerga nafaqat Xorazmdan, shuningdek, Sharqning boshqa yerlaridan mashhur olimlar kela boshladi. Ali ibn Mahmud farmoni bilan shoh saroyi yaqinida kutubxona ochilib, nodir qo'lyozmalar to'plandi. Abu Rayhon Beruniy va uning ustozlari, "o'z davrining Ptolemeyi" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan Abu Nasr ibn Iroq shohning topshirig'iga binoan yetuk olimlar ulomalarga maktublar yo'llab, ularni poytaxt Gurganjga taklif qildi. Natijada Samarqand, Buxoro, Poykand, Termiz, Nishopur, Balx, Marv va hatto arab Iroqidan o'z davrining mashhur olimlari Gurganjga keldi. Gurganj tez orada nafaqat ma'muriy va iqtisodiy, balki ilm-fan markaziga aylandi. Bu yerga musulmon Sharqining turli mamlakatlaridan astronomiya, matematika, tabobat, kimyo, geografiya, tarix, falsafa va boshqa ilmlarda nom chiqargan fan namoyandalari to'plandi. Bular orasida yosh olim va tabib Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va uning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, faylasuf, tabib va tarjimon Ibn Xammor, astronom Mahmud al-Xo'jandiy va boshqalar bor edi. Xorazmshoh Ali Ibn Ma'mun olimlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlab, ularga gamxo'rlik ko'rsatdi. Shu tariqa, 1004 yil boshlarida Xorazmshohlar poytaxti Gurganjda "Majlisi al-ulamo" nomi bilan atalgan yirik ilmiy markaz shakllandi.

Bu yerda ilm bilan shug'ullangan olimlar aniq va tabiiy fanlar, shuningdek, tarix, til va adabiyot, falsafa, mantiq hamda islom ilmlari bo'yicha yirik asarlar yaratdilar. Ma'mun akademiyasida yuzga yaqin olimlar faoliyat yuritishgan, ulardan 30 dan ortig'ining nomlari aniqlanib, asarlari qisman o'rganilgan.

Ma'mun akademiyasida faoliyat olib borgan eng mashhur olimlardan biri Abu Rayhon Beruniydir.

"Bayt ul-hikma" an'alarini izchil davom ettirgan Xorazm Ma'mun Akademiyasi jahon fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ana shu ilmiy dargohda faoliyat ko'rsatgan allomalarning ko'pchiligi O'rta osiyolik, xususan, xorazmlik olimlar bo'lganligi bizga quvonch va faxr baxsh etadi. Ular yoqqan ilm mash'ali uzoq Xorazmda va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida ham fan va madaniyatning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, az-

Zamaxshariy va boshqa ajdodlarimizning dunyoviy ilmlar sohasida yaratgan buyuk kashfiyotlari jahon fani tarixida juda katta inqilobiy voqealarga sabab bo'ldi.

Matematika sohasida al-Xorazmiy tomonidan o'nlik hisoblash tizimi ixtiro qilinib, algebraga mustaqil fan sifatida asos solindi. Astronomiya fanidan trigonometriya ajralib chiqdi va asosiy trigonometrik funktsiyalar aniqlandi. Qomusiy ilm sohibi bo'lgan Abu Rayhon Beruniy fan tarixida birinchi bo'lib yerning dumaloq shaklidagi xartasini - globusni kashf etdi va ilk bor yerning radiusini oson uslubda katta aniqlikda hisoblab, dunyoning geografik xartasini chizib qoldirdi. U o'z asarida Xristofor Kolumbdan besh yuz yil avval dunyoning narigi chekkasida yana bir qit'a borligini ilmiy jihatdan asosladi. O'sha davrda hukm surayotgan nazariyadan farqli o'laroq, Hind va Atlantika okeanlari tutash ekanligini birinchi bo'lib ilmiy jihatdan isbotladi. Shu boisdan ham jahonning mashhur olimlari tomonidan XI asrning birinchi yarmini fan tarixida haqli ravishda "Beruniy asri" deb baholanishi bejiz emas.

Al-Xorazmiy, al-Beruniy va az-Zamaxshariy yashagan zamon bilan hozirgi biz yashayotgan zamon oralig'ida ulkan davr yotibdiki, ana shu o'tgan davr mobaynida insoniyat ilm-fan taraqqiyotida ulkan yutuqlarga erishdi. Biroq, ilm-fan sohasida IX-XII asrlarda yaratilgan bebaho boylikning jahonda ilm-fanning hozirgi yuksak cho'qqilarga erishishida ulkan hissasi borligini alohida ta'kidlash lozim.

Muzey ekspozitsiyasining asosiy g'oyasi - jahon tsivilizatsiyasi rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixi, ilmiy maskanda faoliyat yuritgan allomalarni, Ozarbayjon mutafakkirlarini hayoti va merosini yozma manbalar va ashyoviy dalillar vositasida ko'rsatib berishdan iborat.

1. Ekspozitsiyada olimlar faoliyatini ko'rsatish orqali zamonaviy Xorazm Ma'mun akademiyasini targ'ibot qilish maqsad qilingan.

2. Ekspozitsiyada 1004-1017 yillarda faoliyat yurtigan "Majlis al-ulamo" faoliyatini yoritib berish ko'zda tutilgan bo'lib, unda:

- Xorazm Ma'mun akademiyasining tashkil etilishi;
- unda faoliyat yuritgan allomalar;
- amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari;

- ilmiy tadqiqotlarning hozirgi kundagi ahamiyati mavzularini hujjatlar, ashyoviy dalillar nusxalari, xarita, foto hujjatlar va kartinalar yordamida ko'rsatib berish rejalashtirilgan.

3. Ekspozitsiya O'zbekiston, jumladan Xorazm fani tarixini o'rganishda, Ozarbayjon va O'zbekiston ilmiy – adabiy aloqalarini o'rganishda va yoshlarni vatanparvarlik, tarixga hurmat ruhida tarbiyalashda hamda zamonaviy Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatini tashviqot qilishda muhim ahamiyatga ega.

4. Muzei ekspozitsiyasi zamon talablariga mos, tarixiy xolislikka asoslangan qoidalar asosida tashkil qilinishi va jahon badiiy muzeyshunosligi talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. –Т.: 1971.
2. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. –Т.: 1970.
3. Конрад Н. И. Запад и Восток. –М.: 1992.
4. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Т.: 1997.
5. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Т.: 1999.
5. Salye M. A., Ulug' o'zbek olimi Muhammad al Xorazmiy, T., 1955;
9. Irisov A. makolasi. Xorazmiy va farobiy, T. Birlashgan nauriyot 1961.